

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA
MASALALARI

2025 Vol. 1 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Yekaterina Shirinova

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Manzura Abjalova, Xurshida Kadirova, Shoira Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Dilafruz Xidoyatova, Dilrabo Elova, Elyor Xonnazarov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov, Nasiba Jo'raqulova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, noshirlik ishi, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda to'rt marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. “O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,

Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Мирвари Исмайлова

Научная концепция о происхождении тюрков в Передней Азии ...5

Nasiba Jo'raqulova

Xalq dostonlarida turkiy obraz tasviri14

Sohiba Gazibekova

Diniy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklarning poetik imkoniyatlari (Xayriddin Sulton asarlari misolida)25

Umida Abdullayeva

Badiiylik modusi - she'riyatdagи modifikatsion usul31

QIYOSIY TILSHUNOSLIK

Зульфия Ишкильдина, Луиза Самситова

Корневая морфема в русском и башкирском языках38

Xurshida Kadirova, Xankishi Məmmədov

"Gözəllik" komponentləri ilə paremioloji birliklərin iks-femik semantikası49

Xurshida Kadirova, Odina Uralova

Turkiy va turk xalq maqollarining lingvistik tadqiqi59

Nargiza Aytniyazova

O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi paremiyalarning lingvokulturologik aspekti75

O'ZBEK TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISH

Dilora Bahronova

Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitishda til va madaniyat integratsiyasi ...84

LINGVOKULTUROLOGIYA

Shakhzoda Khayrullaeva

A linguacultural analysis of emotions through metaphors (in english and uzbek: anger, fear, love, and pride)90

PSIXOLINGVISTIKA

Dildora Salimova

Psixolingvistikada nutqni idrok etish masalasi102

SOTSIOLINGVISTIKA

Gulbahor Iskandarova, Yekaterina Shirinova

Bolalarda gender identifikasiyasining lisoniy jihatdan xoslanishi ...111

Lobar Rahimqulova	
Ijtimoiy tarmoqlardagi konfliktli yozishmalarda yosh xususiyatini ifodalovchi lingvistik va paralingvistik birliklar	119
 TIL TA'LIMI NAZARIYASI VA AMALIYOTI	
Gulshan Asilova, Fatma Açık	
Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun matnlarni tanlash tamoyillari	127
 Турсуной Юсупова	
Проблема подготовки обучающихся к текстообразительной деятельности путем выполнения грамматических заданий	139
 Мунира Шодмонова	
Развитие критического мышления у студентов как педагогическая проблема	150
 Yekaterina Shirinova, Gulbahor Iskandarova	
Til ta'limiga antroposentrik yondashuv masalasiga doir	165

O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI PAREMIYALARING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTI

Nargiza Aytniyazova¹

Annotations

Tilning paremiologik fondi avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy meros sanaladi. U o'zida ma'lum bir xalq tomonidan dunyoni bilishning og'zaki tajribasini ifodalaydi. Tilshunoslar paremiologiyani majoziy ma'noda xalq hayoti ensiklopediyasi deyishlari beziz emas. Paremiyalar tilning maxsus birliklari va belgilari, insoniy muloqotning muhim elementlaridir. Bu belgilar aniq ma'lumotlarni yetkazish, odatiy hayot va ruhiy vaziyatlarni, u yoki bu obyektlar orasidagi munosabatni bildiradi va har bir tilda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Tillarning milliy-mental xususiyati esa paremiyalarning o'ziga xos lingvokulturologik qirralarni namoyon qiladi. Maqolada qardosh bo'lgan o'zbek va qoraqalpoq tillarining umumiyligi va xususiy jihatlari, milliy madaniy aspektlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: paremiologiya, paremiyalar, maqollar, matal, leksik birlik, til, madaniyat, milliylik, lingvokulturologiya, frazeologizmlar.

KIRISH

Paremiyalar (maqol, matal, hikmatli so'zlar) qadimgi davrlardan paydo bo'lgan. Ularning ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Shu sababli paremiyalar xalqona kelib chiqish tarixiga ega. Paremiyalarning dastlabki manbayi xalqning jamoaviy ongida yuzaga kelganligini qayd qilish o'rinnlidir. Paremiyalarni muayyan xalq milliy tili o'ziga xosligini ifoda etuvchi til birliklarining muhim qismi, deyish mumkin. Chunki paremiyalar xalqning ma'naviyati, urf-odati, madaniyati, kasbiy faoliyati, turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, qisqa, ixcham, ma'no jihatidan salmoqdor birliklar sifatida davr ruhiga mos keladi.

¹ Aytniyazova Nargiza Farxatovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-mail: aytniyazovanargiza@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0009-0000-2118-9939

Iqtibos uchun: Aytniyazova, N.F. 2025. "O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi paremiyalarning lingvokulturologik aspekti". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari*. 1 (5): 75-83.

DOI: 10.52773/tsuull.aphil.2025.1 (5)/SSNF1293

Paremiyalarning bosh vazifasi voqelikdagi obyektiv hodisalarga xalq bahosini ko'rsatish va shu yo'l bilan xalqning dunyoqarashini aks ettirishdan iborat. Paremiyalarda xalqqa xos tafakkur tarzi, qarashlarning o'ziga xos xususiyatlari ifodalanadi. Ularda kundalik turmush, fe'l-atvor, urf-odatlar, e'tiqod va irimlar namoyon bo'ladi. [Kazakov 2023, 154]

Paremiyalar nutq jarayonida, odatda, tarkibini o'zgartirmay qo'llaniladi. Shu sababli ular nutq birligi emas, balki til birligi sanaladi. So'zlovchi o'z nutqi davomida paremiyalardan turli maqsadlarni ko'zlab foydalanadi. Bu esa o'z navbatida nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligi va uslubiy jihatdan rang-barang bo'lishini ta'minlaydi. Bizga ma'lumki, paremiyalarda xalqning urf-odatlari, tarixiy shaxslar, mashhur kishilar hayoti, umuman, milliy-madaniy tushunchalar obrazli tarzda ifodalanadi. Shuningdek, paremiyalarda ko'chma ma'no aks etganligi bois, ularga turg'un birlik, ya'ni frazeologizmlar kabi munosabatda bo'lish ham kuzatiladi. Haqiqatan ham, paremiyalar frazeologik birliklarga juda o'xshaydi. Ammo ular o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra frazemalardan farqlanadi. Shuning uchun paremiyalarning folklor (xalq og'zaki ijodi) mahsuli sifatida qaralishi hamda frazeologiya sohasi tarkibida tahvilga tortilishi maqolshunoslikning muayyan darajada chegaralanib qolishiga olib keldi.

ASOSIY QISM

An'anaviy ilmiy yondashuvlarda paremiyalar, asosan, xalq og'zaki ijodining o'rghanish doirasida qolib keldi. Unga folklor janri sifatida yondashildi. Garchi tilshunoslikda paremiyalar barqaror birliklar sifatida lisoniy hodisa deb e'tirof etilsa-da, uning lisoniy mohiyatiga yetarlicha baho berilgan, deyish noto'g'ri bo'ladi. Fanimizda lisoniy birlik sifatida uning ayrim sintaktik xususiyatlarigina tahvilga tortilgan xolos [Бакиров 2007, 50]. Shu nuqtayi nazardan, paremiyalarni ham xalq og'zaki ijodi namunalari darajasida, ham lingvokulturologiyaning birligi sifatida tadqiq etish uchun alohida soha vujudga keldiki, u paremiologiya tarmog'i deb ataladi. Paremiobiya (yunoncha: paroimia — hikmatli so'z, zarbulmasal va ... logiya) — 1) ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni — paremalarni o'rghanadigan fan sohasi; 2) muayyan tilda mavjud bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar — paremalar tizimi [<https://uz.wikipedia.org/wiki/>]. Demak, paremiobiya maqol, matal, aforizmlarni o'rGANUVCHI

fan bo'lib, uning o'rganish obyekti paremiyalar hisoblanadi. Ayniqsa, lingvokulturologiyaning o'rganish predmetlari orasida paremiya (maqol) lar alohida ajralib turadi. Zero, ularda xalq o'zining boy tajribasini aql zakovati bilan uyg'unlashtirgan holda namoyon etadi. Paremiyalar insonning ongiga, xotirasiga o'rashadi. Shu asosda inson o'zida, shuningdek, atrofida kechayotgan har bir hodisani baholay oladi. Ana shunga ko'ra paremiyalar borliqni kuzatish va undagi voqeliklarga munosabat bildirishning milliy madaniy mezoni sifatida yashaydi.

Dunyodagi har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'plab, uni turli vositalar bilan keljak avlodlarga meros qilib qoldirib keladi. Maqollar ana shunday beba ho ma'naviy xazinamiz durdonalaridan biridir. Ular insonlarning hayotiy tajribalari va ko'nikmalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, estetik tuyg'ulari, ijobiy hamda salbiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tugal ma'noga ega hosila bo'lib, gap ko'rinishidagi murakkab til birligidir. Maqollar asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, sodda va ixcham shaklga kelib qolgan. Shakl va mazmunning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'noning uyg'unligi maqollarga xos xususiyatlar sirasiga kiradi. Darhaqiqat, manbada qayd qilinishicha, inson nutqidagi muhim komponentlardan biri maqollar bo'lib hisoblanadi. Chunki ular hayotning barcha ko'rinishlarini o'rab olgan tushunchalarni, ya'ni, diniy, xudo, oila, turmush qurish, ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlar, sog'lik, do'stlik, pul, hayvonlar, qarindosh urug'chilik, tajriba, donolik, kambag'allik va boylik haqidagi tasavvurlarni yorqin aks ettirish imkoniga ega [Dweik, Thalji 2016, 120-127].

Har qanday tabiiy til tarkibidagi maqollarning vaqt o'tishi bilan, jamiyat va tildagi o'zgarishlar tufayli bir yoki bir nechta komponenti o'zgarib (bunda so'z yoki jumla boshqa so'z yoki jumla bilan o'ren almashishi, o'rnini o'zgartirishi, tushib qolishi yoki yangi so'z va jumla qo'shilishi nazarda tutilmoqda), bir qancha variantga ega bo'lgan maqollar shakllanishi mumkin. Ular "invariant maqollar" deb ataladi [Жигарина, 2006: 16-18]. Shu tariqa sodda hamda murakkab tarkibga ega maqollar shakllanadiki, ular insonlar tomonidan qo'llaniladigan jamiki tabiiy tillar tarkibida kuzatiladi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, manbada keltirilishicha, maqollar tarkibiy jihatdan ikki turga ajraladi: 1) sodda (ikki yoki undan ortiq gap bo'lagidan iborat – "Bir tomchi SUV chumoliga daryo ko'rinar"); 2) murakkab (ikki yoki undan ortiq komponentli – "O'roqda yo'q,

mashoqda yo'q, xirmonda hozir") [Бердиёров, Расулов 1984, 15-18].

Til uning sohibi bo'lgan millatning benihoyat katta boyligi bo'lsa, undagi maqollar xalqning o'ziga xos mentaliteti, hayot tarzi, urf-odatlari, an'analari, qarashlari, o'tmishdagi qahramonlarini, shu bilan birga, tarixiy va diniy voqelikni, bir so'z bilan aytganda, milliy-madaniyatni o'zida gavdalantiradi. Qayd qilish joizki, maqollarning yaratilishiga ba'zi hollarda milliy an'analar va diniy qadriyatlarga bog'liq afsonalar va tarixda bo'lib o'tgan voqe-hodisalar ham turtki bo'lgan. Shu sababli maqollar tarkibida qadimiy bayram va an'analarning nomlari, avliyo va payg'ambarlar ismlari, tarixiy va afsonaviy shaxslar ismlari, voqe-hodisa va joy nomlari singari milliy, tarixiy va diniy so'zlar ko'plab uchraydi.

O'zbek va qoraqalpoq xalqlari shakllanishiga ko'ra bir ildizga borib taqalishi bois bu ikki qardosh xalq madaniyati bir-biriga juda yaqindir. Shunga ko'ra ularning paremiologik birliklarida ayrim tafovutlar va ko'plab o'xshashliklar kuzatiladi. Ana shunday tomonlarni ko'rsatib berish barobarida har ikki xalq mentalitetiga xos milliy-madaniy xususiyatlarni o'zida mujassam etgan paremiyalarni lingvokulturologik jihatdan talqin etish o'rinnlidir. Tadqiqotimiz davomida o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi maqollarni qiyosiy tahlil qilib, muqobili mavjud va muqobili mavjud bo'lmanan birlıklarni ajratdik.

Muqobili mavjud maqollar:

- *Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin* [Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov 2012, 79] // Biyday naniň bolmasa da, biyday sóziň bolsın [Қарақалпақ фольклоры 2015, 133]. O'zbek va qoraqalpoq xalqlari azaldan mehmondo'st, xushmuomala sanaladi. Ular "Mehmon otangdek ulug" // "Miyman atańday ulli" degan paremiyalarni turmush tarzida ham faol qo'llab, o'zi yemasa ham, xonadonidagi bor noz-ne'matlarni mehmon oldiga to'kib-sochishga odatlanishgan. Agar ular mehmonning qornini to'q qilishga qurbi yetmassa, hech bo'lmaganda ikki og'iz shirin so'zi bilan uni siylash, ko'nglini ko'tarishni astoydil xohlashadi. Shu ma'noda, *bug'doy // biyday so'zları tahlildagi paremiyalar tarkibida o'zbek va qoraqalpoq xalqlari milliy-madaniyatini o'zida aks ettiruvchi etalon sifatida qo'llanilgan.*

- *Non ham non, ushog'i ham non* [Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov 2012, 234] // *Nanniň usaǵı da nan // Nanniň usaǵınan qorq* [Қарақалпақ фольклоры 2015, 68]. O'tmish zamonalardan beri ulug'larimiz bejizga "nonday aziz va mukarram bo'lgin" deb yaxshi

niyat bilan duo o'qishmaydi. Har bir oilada ota-onalar farzandlariga yoshligidan-oq, "nonni ushatmasdan ye", "nonni isrof qilma", "nonni bosma", "non ushog'i ham non", "non ushoqlarini ko'zingga sur" deya o'git, nasihat qilib kelishadi. Bularning barchasi o'zbek va qoraqalpoqlarda nonga bo'lgan e'tibor, e'zoz, qarashning dalolati. Chunki bu qarashga ko'ra, nonni oyoq osti qilish, uni qadrlamaslik, unga nisbatan isrofgarchilik insonni oxir-oqibat yo'qchilikka duchor qilishi mumkin. Shunga ko'ra bunday paremiyalar madaniyatlararo yaxlitlikni shakllantiradi.

- *Nafsibuzuq hayitda o'lar* [Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov 2012, 293] // *Tamaǵı jaman haytta óler* // *Nápsi jaman toyda óler* [Қарақалпақ фольклоры 2015, 50; 63]. Islom dinida nafsiyi olmaydigan, badnafs kishilar hamisha qoralanib kelingan. Chunki diniy manbalarda haddan ortiq taom yeyish qalbni o'ldiruvchi illat ekanligi uqtirilgan. Shunday qarashlar ta'siri ostida xalqlar orasida ushbu paremiyalar kelib chiqqan. Negaki, nafsiyi olmaydigan inson qanoatsizligi, ko'zi ochligi, ochofatligi sababli dasturxongacha tortiq qilingan barcha noz-u ne'matlarni yeb tugatish ilinjida, iste'mol qilgan taomlarini hazm qila olmasdan Hayit bayrami kunida o'ladi. Shu o'rinda, Hayit musulmon xalqlarida bayram sanalishini qayd etish joiz. O'sha Hayit bayrami kuni har bir xonadonda imkon qadar to'kin-sochinlik bo'ladi. Ko'zi ochlik tufayli ularni yeb tugatishga bo'lgan ishtiyooq kishi umriga nuqta qo'yishi ham mumkin. Har ikki xalq madaniyatiga daxldor ushbu paremiyalarda islomiy qarash o'z aksini topganligini ta'kidlash kerak.

- *Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga* [Mirzayev, Musoqulov, Sarimsoqov 2012, 464] // *Jas kelse – iske, garri kelse – asqa* [Қарақалпақ фольклоры 2015, 175]. O'zbek va qoraqalpoq xalqlarida keksa kishilarni, tabarruk yoshdagini qariyalarni farishtaga qiyoslashadi. Shuning uchun "Qarisi bor uyning parisi bor" deyishadi. Qadimgi davrlardan boshlab qariyalar ma'lum bir kishining uyiga qay vaqtda kelishidan qat'iy nazar, ularga hurmat ko'rsatib to'rga o'tkazish, osh-ovqatga tortish har ikki xalq orasida odatga aylangan. Shuningdek, agar uyda biror yumush bajarilayotgan bo'lsa, yosh yigit o'sha mehnat qilinayotgan paytda xonadonga tashrif buyursa, uni ham ishga jalb qilish maqsadida, unga qarata "Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga" // "Jas kelse – iske, garri kelse – asqa" deb yuzlanish urf bo'lgan. Bu paremiyalar zamirida xalqlarimizning o'tmishdan saqlanib kelayotgan milliy-madaniy xususiyatlari jamlangan.

Muqobili mavjud bo'limgan maqollar:

- *Yaxshi mehmon – osh ustida*. Azal-azaldan mavjud bu

paremiya zamirida o'zbek xalqi tabiatiga xos bo'lgan holat aks etgan. Oilada barcha jamul-jam bo'lib, dasturxon atrofiga to'planishib, taomga qo'l cho'zishga taraddudlanib turgan vaqtida qo'qqisdan uyga kimdir mehmon sifatida kelib qoladi. Ana shunday paytlarda unga qarata "Yaxshi mehmon – osh ustida", "Yaxshi kishi osh ustida keladi" kabi paremiyalar qo'llaniladi. Shuningdek, "qaynonangiz sizni juda sevar ekan" deb qo'shib qo'yiladi. Bunday mulozamat ko'rsatish tashrif buyurgan mehmonning xonodon ahli uchun yaxshi fazilatlarga ega, o'ta qadrli inson ekanligidan darak beradi. Bu ham, albatta, xalqimizga xos bo'lgan madaniyatning ko'rinishlaridan biridir. Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida mehmon bilan bog'liq "*Qonaq kelse, et piser*", "*Qonaqtı sóz benen toyǵızba, as penen toyǵız*" singari bir qator paremiyalar mavjud [Қарақалпақ фольклоры 2015, 120]. Ammo qoraqalpoqlarda o'zbek xalqi ishlataladigan "Yaxshi mehmon osh ustida" paremiyasining aynan muqobili kuzatilmaydi.

- *Halvo degan bilan og'iz chuchimas* [Шомақсудов, Шораҳмедов 1987, 343]. U mazmunan "*Olma pish, og'zimga tush*" // "*Alma pis, awzima túš*" paremiyalariga hamohangdir. Tahlildagi paremiyalar hayotda dangasalik, tayyorga ayyorlik kabi xislatlarni qoralab, kishilarni mehnatsevarlikka chorlaydi. Hamisha birovlarning qo'liga qarab qolmasdan, o'zi ishlab, halol mehnat qilib, moddiy boylik to'plashga odatlanishga undaydi. Bu dunyoda biror narsani orzu qilgan bilan ish bitmaydi. Uning amalga oshishi uchun, albatta, mehnat qilish talab qilinadi. Aks holda barcha orzular sarob kabi qolib ketishi mumkin. Paremiyada orzuga erishmoq uchun barcha mashaqqatlarga bardosh berish lozimligi, astoydil harakat qilgan taqdirdagina maqsadni amalga oshirish muqarrarligiga doir ishora bor. Demak, qoraqalpoqlarda o'zbek xalqi tomonidan ishlataladigan paremiyaning aynan muqobili uchramaydi.

- *Bir mayizni qirq kishi bo'lib yebdi* [Шомақсудов, Шораҳмедов 1987, 42]. Qadimdan o'zbek xalqiga xos bo'lgan eng oliy qadriyatlardan biri ahillik, totuvlik bo'lib hisoblangan. U bizga ajdodlarimizdan o'tgan fazilatdir. Bir mayizni qirq qismga ajratib yejish, o'zi yemasdan, o'zgaga ilinish o'tmish davrlardan hozirgacha saqlanib kelayotgan insoniy sifatlar qatoriga mansub. Shunga muvofiq, bizning ota bobolarimiz tomonidan ushbu paremiya yaratilgan. Ta'kidlash kerakki, qoraqalpoq xalqida bu paremiyaning muqobili uchramaydi.

Har ikki qardosh xalq madaniyati ko'p o'rirlarda umumiylilikka daxldorligi bois, o'zbek va qoraqalpoq tillarida ma'nosiga ko'ra bir xillikka ega paremiyalar talaygina. Ular shakliga ko'ra ham bir-

biriga muvofiq keladi. Ammo o'zbek tilida shunday paremiyalar borki, qoraqalpoq tilida ularning aynan muqobili uchramaydi. Faqat o'zbek xalqigagina xos bunday paremiyalarning qoraqalpoqlarda birmuncha o'xshash muqobillarini kuzatish mumkin xolos. Lekin ular aynan o'zbek tilidagi paremiyaning mazmun-mohiyatini to'laqonli anglata olmaydi. Chunki bunday paremiyalarda faqat o'zbeklarga xos bo'lgan mentalitetning yorqin namunalari aks etgan bo'lib, ular ushbu millatning azaldan davom etib kelayotgan ayrim urf-odat, an'ana, diniy va dunyoviy qarashlarini o'zida namoyon etgan.

XULOSA

Xullas, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi paremiyalarda o'sha xalqlarning qadimiy urf-odat, an'ana, milliy-madaniy xususiyatlari gavdalanim, ularning lingvokulturoligik umumiy va xususiy jihatlari namoyon bo'ladi. Shuningdek, har ikki millatning o'tmis madaniyatidan dalolat beruvchi paremiyalar xalqlarning hayotiy tajribasi asosida chiqargan xulosalarini o'zida jamlagani bois, muqobili bo'limgan maqollar uchrashi, ularning mental-madaniy o'ziga xosliklarga egaligidan dalolat beradi. Ular xalq og'zaki ijodi namunalari sanalishi bilan birga milliy madaniy qadriyatlar sirasiga kiruvchi urf-odat, an'ana va rasm-rusumlarni ajdodlardan avlodlarga yetib kelishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

Dweik B.S., Thalji M.B. Strategies for translating proverbs from English into Arabic // Academic Research international. Pakistan, 2016. –Vol. 7(2). – P. 120-127.

Kazakov I.R. O'zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliliklar talqini. Toshkent: Firdavs-shoh nashriyoti, 2023.

Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. Toshkent: Sharq, 2012.

Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. Ташкент, 2007. – С. 50.

Бердиёров X., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати (университетлар ва педагогика институтларининг филология факультетлари талабалари учун қўлланма). Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 320 б.

Жигарина Е.Е. Современное бытовение пословиц: вариативность и полифункциональность текстов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М.: 2006.

Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 88-100-том. Нөкис: Илим, 2015. – 544 б.

Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Нега шундай деймиз. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 352 б.

LINGUOCULTURAL ASPECT OF PARAEMIA IN THE UZBEK AND KARAKALPAK LANGUAGES

Aytniyazova Nargiza¹

Abstract

The paremiological fund of a language is considered a spiritual heritage passed down from generation to generation. It represents the oral experience of a particular people in knowing the world. It is not for nothing that linguists figuratively call paremiology an encyclopedia of folk life. Paremies are special units and signs of language, important elements of human communication. These signs convey specific information, express ordinary life and mental situations, the relationship between certain objects, and are manifested in each language in its own way. The national-mental nature of languages reveals the specific linguocultural aspects of paremies. The article analyzes the common and specific aspects of the Uzbek and Karakalpak languages, which are related.

Keywords: *paremiology, paremias, proverbs, idiom, lexical unit, language, culture, nationality, linguoculturology, phraseology.*

References

- Dweik B.S., Thalji M.B. Strategies for translating proverbs from English into Arabic // Academic Research international. Pakistan, 2016. -Vol. 7(2). – P. 120-127.
- Kazakov I.R. O'zbek va qoraqalpoq tillarida lingvokulturologik birliliklar talqini. Toshkent: Firdavs-shoh nashriyoti, 2023.
- Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. Toshkent: Sharq, 2012.
- Bakirov P.U. Nominacentricheskie poslovicy v raznosistemnykh yazykakh (na materiale russkogo, uzbekskogo i kazakhskogo yazykov): Avtoref. diss. ... d-ra. filol. nauk. Tashkent, 2007. – S. 50.
- Berdiyorov X., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati (universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari

¹ Aytniyazova Nargiza Farxatovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-mail: aytniyazovanargiza@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0009-0000-2118-9939

For citation: Aytniyazova, N.F. 2025. "Linguocultural aspect of paraemia in the uzbek and karakalpak languages". *Uzbekistan: language and culture. Issues of applied philology*. 1(5): 75-83.

- uchun kÿllanma). Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 320 b.
- Zhigarina E.E. Sovremennoe bytovenie poslovic: variativnost' i polifunktional'nost' tekstov: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. M.: 2006.
- Qaraqalpaq fol'klory. Kep tomlyq. 88-100-tom. Nekis: Ilim, 2015. – 544 b.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lif, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochtasiga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'limgan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbliji, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifni" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilari va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasini qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbara havola matn ichida to'rtburchak qavsdasi [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyası

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosini tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyası

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'ZFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.
Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent:
Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]
[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbekadabiyotining falsafiysarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]
[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatic xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]
[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]
[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]
[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalaniman sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida

aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi". UZA: *O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle.org/>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropo- logy and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of

the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of The Chicago Manual of Style.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE**Article in a print journal**

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text (“As of July 19, 2008, the McDonald’s Corporation listed on its website . . .”). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. “Google Privacy Policy.” Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald’s Corporation. 2008. “McDonald’s Happy Meal Toy Safety Facts.” <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald’s 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan №0936 raqami bilan ro'yxatdani o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2921.№308/6).

Manzil: O'zbekiston, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>